


## Strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish yo'lida

---



**Avval xabar qilinganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo'ldi.**

O'zbekiston va Rossiya vaqt sinovidan o'tgan strategik hamkorlardir. Prezidentlarimizning strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlash yo'lidagi qat'iy sa'y-harakati tufayli mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik sifat jihatidan yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarildi.

O'zbekiston va Rossiya rahbarlarining ushbu uchrashuvi oliy darajadagi muntazam muloqotlarning mantiqiy davomidir. O'zaro ishonch va konstruktivlikka asoslangan siyosiy muloqotlar ikki tomonlama munosabatlarning uzoq muddatli istiqboli va muhim yo'nalishlariga zamin yaratmoqda.

Tashrifning asosiy tadbirlari 19-oktyabr kuni Ko'ksaroy qarorgohida bo'lib o'tdi.

Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng Shavkat Mirziyoyev va Vladimir Putin tor doirada muzokara o'tkazdi.

Prezidentimiz oliy martabali mehmonni samimiy qutlab, O'zbekiston va Rossiya munosabatlari keyingi ikki yilda yanada mustahkamlanganini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari Moskva shahrida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovga haykal o'rnatilgani uchun ko'p millatli O'zbekiston xalqi nomidan samimiy minnatdorlik bildirdi.

Keyingi bir yilda yuqori darajada 80 dan ortiq tashriflar amalga oshirildi. Hududlar o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ydik. Bugun Toshkentda Hududlararo hamkorlik forumi bo'lib o'tmoqda. Unda Rossiya hududlari, jamoatchiligi va biznesining mingdan ortiq vakili ishtirok etmoqda. Joriy yil boshidan hozirgacha tovar ayirboshlash hajmi 30 foizga o'sdi. Yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari yana bir strategik loyiha – mamlakatimizda birinchi atom elektr stansiyasi qurilishi loyihasi boshlanayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Vladimir Putin davlatimiz rahbariga taklif uchun minnatdorlik bildirib, O'zbekiston Rossiyaning ishonchli ittifoqchisi, strategik sherigi ekanini ta'kidladi.

Sizning Rossiyaga o'tgan yilgi davlat tashrifingizdan keyin ikki tomonlama munosabatlarning hamma sohalarda katta o'zgarishlar bo'ldi. Bu o'rinda gap, avvalo, iqtisodiyot haqida ketmoqda. Biz O'zbekiston qanchalik tez va tubdan rivojlanayotganini, mamlakat iqtisodiyoti va xalqi uchun zarur islohotlar amalga oshirilayotganining guvohi bo'lmoqdamiz, dedi Rossiya Prezidenti.

Uchrashuvda hamkorlikning hozirgi holati va uni har tomonlama rivojlantirish, turli sohalarda yangi qo'shma loyiha va dasturlarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi, mamlakatlarimizning dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalarga doir yondashuvlari mos yoki yaqin ekani ta'kidlandi.

Tomonlar BMT, MDH, SHHT, YEXHT va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar doirasida o'zaro hamkorlikni davom ettirishga tayyor ekanini tasdiqladilar.

Prezidentlar xavfsizlik sohasida o'zaro ishonch va manfaatlarni hisobga olish prinsiplariga asoslangan sheriklik munosabatlarini kengaytirish Markaziy Osiyo mintaqasidagi yangi tahdid va xatarlarga qarshi kurashish vazifalarini birgalikda hal etishga xizmat qilishini qayd etdilar.

Terrorizm, ekstremizm, ayniqsa, yoshlar orasida radikallasuvga qarshi kurashish bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish yuzasidan fikr almashildi.

Tomonlar Afg'onistonda tinchlik o'rnatish jarayonini afg'on xalqining o'zi amalga oshirishi zarurligini yana bir bor ta'kidladilar. Rossiya O'zbekistonning Afg'onistonda tinchlik jarayoniga ko'maklashish borasidagi muhim sa'y-harakatlarini yuksak qadrlaydi.

Davlat rahbarlari Markaziy Osiyoda o'zaro manfaatli va samarali mintaqaviy hamkorlik rivojida ijobiy tendensiyalar kuzatilayotganini qayd etdilar.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Prezidenti Vladimir Putin muzokaralarni ikki mamlakat delegatsiyalari ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom ettirdi. Unda savdo-iqtisodiy investitsiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada rivojlantirishning amaliy jihatlari muhokama qilindi.

Rossiya O'zbekistonning muhim savdo hamkorlaridan. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

Muzokaralarda tovar ayirboshlash hajmini oshirish va nomenklaturasini diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish, transport va energetika sohalarda o'zaro hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Sentyabr oyida hukumat rahbarlari raisligida Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya majlisi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Hududlar o'rtasidagi hamkorlik rivojlanmoqda. Rossiyaning yetakchi kompaniya va banklari bilan birgalikda yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Hisob-kitoblarimizga ko'ra, joriy yilda tovar ayirboshlash hajmi 6 milliard dollarga yetadi. Bu raqam rejalashtirganimizdan ham ortiq. Yaqin yillardagi vazifa savdo aylanmasini 10 milliard dollarga yetkazish, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Vladimir Putin davlatimiz rahbarining fikrini to'liq qo'llab-quvvatladi. O'zbekiston va Rossiya hukumatlariga o'zaro tovar ayirboshlashni ko'paytirish bo'yicha zarur choralar ko'rish topshirildi. Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya faoliyatini yanada kuchaytirish lozimligi ta'kidlandi.

Davlat rahbarlari tashrif doirasida umumiy qiymati 25 milliard dollar bo'lgan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hujjatlar imzolanganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Bugungi kunda Rossiyaning mamlakatimiz iqtisodiyotiga yo'naltirgan investitsiyalari hajmi 8,5 milliard dollardan oshadi. Tashrif doirasida Prezidentimiz tashabbusi bilan ilk bor o'tkazilgan "O'zbekiston – Rossiya" hududlararo hamkorlik forumi bu borada katta ahamiyat kasb etdi. Uning yakunida qiymati 2 milliard dollardan ziyod loyihalar bo'yicha kelishuvga erishilgani qayd etildi.

Mamlakatlarimiz o'rtasida madaniy-gumanitar aloqalar kengayib bormoqda. Joriy yilda ilk bor O'zbekiston – Rossiya media-forumi o'tkazildi, kuni kecha Rossiyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalarining 80 nafar rahbari ishtirokida Ta'lim forumi bo'lib o'tdi. "Yangi iqtisodiyot uchun yangi kadrlar" mavzuidagi mazkur forumda ta'lim va fan sohalaridagi hamkorlik, jumladan, mamlakatimizda Rossiyaning yetakchi oliy o'quv yurtlari filiallarini ochish to'g'risida 100 dan ortiq kelishuv imzolandi.

Shavkat Mirziyoyev bu keyingi paytlarda hamkorlikda erishilgan yuqori marralardan ayrimlari ekanini, Rossiya Prezidentining davlat tashrifi O'zbekiston va Rossiya munosabatlari rivojiga yangi, kuchli impuls bag'ishlashini ta'kidladi.

Muzokaralarda madaniy-gumanitar aloqalarni, ayniqsa, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash va turizm sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Joriy o'quv yilidan Olmaliq shahrida Moskva po'lat va qotishmalar instituti filiali ish boshladi. Mamlakatimizda samarali faoliyat yuritayotgan Moskva davlat universiteti, Rossiya iqtisodiyot universiteti, Rossiya davlat neft va gaz universiteti filiallariga qo'shimcha ravishda Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti, "MMFI" milliy tadqiqot yadro universiteti, Butunrossiya kinematografiya davlat instituti, Moskva

energetika instituti, Rossiya kimyo-texnologiya universiteti filiallarini ochish rejalashtirilgan.

Ilm-fan sohasida o'zaro hamkorlikni faollashtirish, jumladan, Jizzax viloyatidagi Suffa platosida yirik radioteleskop barpo etish loyihasini amalga oshirish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish maqsadida mamlakatimizda O'zbekiston – Rossiya yoshlarining to'rtinchi forumi o'tkaziladi.

2020 yilda Ikkinchi jahon urushida erishilgan g'alabaning 75 yilligi nishonlanadi. Davlatimiz rahbari ushbu sanani munosib kutib olish maqsadida mamlakatimizda maxsus dastur ishlab chiqish va Toshkentda "G'alaba" bog'-majmuasini barpo etish rejalashtirilayotganini qayd etdi.

Ushbu maskan fashizmga qarshi kurashimiz ramzi bo'ladi, yosh avlodni tarixga hurmat, vatanparvarlik va xalqlar do'stligi ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Aholi, avvalo, yoshlarni rus adabiyotining eng sara namunalari bilan keng tanishtirish maqsadida o'zbek tilida 100 jildlik "Rus mumtoz adabiyoti durdonalari" to'plamini nashr qilish rejalashtirilmoqda.

Muzokaralar yakunida salmoqli hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin Qo'shma bayonotni imzoladilar.

Tashrif doirasida imzolangan 2019-2024 yillarda iqtisodiy hamkorlik dasturi, 2019-2021 yillarda madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik dasturi, "Suffa" xalqaro radioastronomik observatoriyasini tashkil etish bo'yicha yo'l xaritasi, O'zbekistonda Rossiyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalari filiallarini tashkil etish va faoliyatini ta'minlash to'g'risidagi bitim, To'qimachilik sanoatida hamkorlik to'g'risidagi bitim o'zaro almashildi.

"Mustaqillikning 25 yilligi" konini qo'shimcha razvedka qilish va jihozlash hamda Surxondaryo viloyatida gaz-kimyo majmuasini qurish bo'yicha "O'zbekiston mustaqilligi" investitsiya blokiga doir qo'shimcha bitim, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi va M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi shartnoma, O'zbekistonda Moskva davlat xalqaro munosabatlar institutining filialini tashkil etish to'g'risida bitim, Fanlararo ilmiy ta'lim markazini tashkil etish to'g'risida bitim, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari

rektorlari kengashi va "Butunrossiya rektorlari ittifoqi" jamoat tashkiloti o'rtasida bitim, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va Rossiya Federatsiyasi Milliy gvardiya qo'shinlari federal xizmati o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolandi.

Tashrif asnosida jami 20 ta hujjat imzolandi.

Ommaviy axborot vositalari uchun brifingda Prezidentlar tor va keng doiradagi muzokaralar har doimgidek ochiq va o'zaro ishonch ruhida o'tganini, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash va hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari yuzasidan atroflicha fikr almashilganini ta'kidladilar. Bu o'zaro munosabatlarning bugungi holatini baholash, ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash imkonini berdi. Ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan tomonlarning pozitsiyasi bir xilligi yoki yaqinligi qayd etildi.


Davlatlarimiz o'rtasida do'stona aloqalar va har tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan izchil shaxsiy sa'y-harakatlari uchun Rossiya Federatsiyasi Prezidentiga alohida minnatdorlik bildiraman, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Biz O'zbekiston Prezidenti bilan konstruktiv va juda foydali muzokaralar o'tkazdik, ikki tomonlama hamkorlikka oid keng doiradagi masalalarni batafsil ko'rib chiqdik, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdik. Ittifoqchilik va strategik sheriklik munosabatlarimizni rivojlantirishning muhim yo'nalishlarini belgilab oldik. Bularning barchasi biz imzolagan Qo'shma bayonotda o'z aksini topdi. Unda mamlakatlarimiz vazirliklari, idoralari va tashkilotlari oldidagi hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan, dedi Vladimir Putin.

Kunning ikkinchi yarmida Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamrohligida Mustaqillik maydoniga tashrif buyurib, Mustaqillik va ezgulik monumenti poyiga gul qo'ydi.

Prezidentlar "O'zekspomarkaz"dagi "O'zbekiston – Rossiya" birinchi hududlararo hamkorlik forumiga tashrif buyurdi. Shavkat Mirziyoyev va Vladimir Putin ramziy tugmani bosib, mamlakatimizdagi birinchi atom elektr stansiyasi qurilishi loyihasining boshlanishiga start berdi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining mamlakatimizga davlat tashrifi keng ko'lamli ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishga kuchli sur'at bag'ishladi.



Davlat rahbarlari norasmiy uchrashuv ham o'tkazdi.

Prezident Vladimir Putin Rossiyaga jo'nab ketdi. Uni Prezident Shavkat Mirziyoyev kuzatib qo'ydi.

[O'ZA](#)